

bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan.

Bundan tashqari, 40 dan ortiq axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan geoportalni ishga tushirish, jamoat transporti va kommunal infratuzilmani boshqarishning axborot tizimini yaratish, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va keyinchalik ushbu tajribani boshqa hududlarda joriy qilishni nazarda tutuvchi "Raqamli Toshkent" kompleks dasturi amalga oshirilmoqda.[3]

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklarining transformatsiya jarayoni va raqamli bank tizimida ishlashga o'tishi bu – yangi axborot texnologiyalarini rivojlanishi hamda butun dunyo raqamlashtirish poygasiga munosib javob hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni ham birdek kamaytiradi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish mamlakat bank-moliya tizimi ravnaqining muhim yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Shavkat Mirziyoyevning "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi farmoni. 2020-yil 12-may

Demurchyan L.R. Raqamlashtirish sharoitlarida bank sektorining transformatsiyasi. «Innovatsiyalar va investitsiyalar». № 3. 2022-yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston — 2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirishchora-tadbirlari to`g`risida, 2020-yil 5-oktabr

"O'ZBEKISTON 2030" STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA MINTAQALARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI

*G.P.Erkayeva, i.f.n., dots.
Qarshi DU kafedra mudiri*

Ma'lumki 2023 yil 11 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son Farmoni bilan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi²⁰ qabul qilindi. Ushbu strategiyaning 60-maqсадида hududlarni kompleks rivojlantirish masalalari qayd etilgan²⁰.

Qashqadaryo viloyati respublikaning janubiy mintaqasi hisoblanib, o'zining tabiiy-iqlimiylar va ijtimoiy-demografik sharoitlari bilan mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rinni tutadi. Viloyat sanoati rivojlanayotgan mintaqalardan bo'lib, respublika yonilg'i-energetika sohasida yetakchidir. Viloyatning agrar sohaga ixtisoslashuvi uning mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etishdagi o'rni va ahamiyatini belgilab beradi.

Iqtisodiy rivojlanish (yalpi hududiy mahsulot) darajasi bo'yicha viloyat 5-o'rinda bo'lib, nisbatan rivojlangan mintaqalar guruhiga kirsada, keyingi yillarda viloyat

²⁰ "O'zbekiston 2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmoniga 1-ilova. <https://lex.uz/ru/>

iqtisodiy rivojlanishidagi muammolar aniq namoyon bo‘lmoqda. Qashqadaryo viloyati ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, YAHM o‘sish sur’atlari 2016 yildan to 2021 yilgacha muttasil pasayib borgan va 2021 yilda keskin o‘zgarib, 106,8 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2022 yilda o‘sish sur’ati o‘tgan yilga qaraganda yana pasaygan (105,6%).

O‘rganishlar viloyatda iqtisodiyotning shakllangan tarkibi resurs salohiyati, mehnat bozori, iqtisodiyotning real sektori va ijtimoiy sohaning rivojlanishi bilan balanslashmaganligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat tumanlarida iqtisodiy rivojlanish darajasi katta tabaqalanishga ega. Iqtisodiy guruhlashga ko‘ra rivojlangan guruhga bor-yo‘g‘i - Mirishkor va Nishon tumanlari (14,5%), nisbatan rivojlangan tumanlarga Muborak, Koson, Yakkabog‘, Kasbi, Shahrisabz (38,5%), sust rivojlangan tumanlarga Kitob, G‘uzor, Qarshi, Qamashi, Chiroqchi va Dehqonobod (46,1%) kirdi.

Keyingi yillar ichida Mirishkor, Koson, Muborak, Yakkabog‘ va Chiroqchi tumanlarida sanoat, qishloq xo‘jaligi va tadbirkorlikni rivojlanishi hisobiga iqtisodiy rivojlanish darajasi oshgan bo‘lsa, boshqa tumanlarning barchasida, ayniqsa Qarshi, Kasbi, Shahrisabz, Qamashi, Dehqonobod tumanlarida bu ko‘rsatkich tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan to‘liq foydalanmaslik sababidan pasaygan²¹.

Viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirish borasida salmoqli ishlar olib borilganligiga qaramasdan, bu yerda bir qator muammolarning ham mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Agrosanoat majmuasi viloyat iqtisodiyotida ish bilan band aholining shu tarmoqda qamrab olingan ulushi bilan ham ahamiyatlidir. Biroq, viloyat agrosanoat majmuasida amalga oshirilgan tarkibiy o‘zgarishlar qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishslash sanoatining barqaror rivojlanishiga ko‘zlangan darajada ta’sir ko‘rsatmadı. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishslash viloyat bo‘yicha ancha past darajada saqlanib qolmoqda. Keyingi yillar mobaynida viloyat qishloq xo‘jaligining barqaror o‘sish sur’atlarida jiddiy muammolarning mavjudligi ko‘zga tashlanmoqda. Buni, bir tomonidan, oxirgi yillarda ob-havo sharoitining noqulay kelishi (qurg‘oqchilik, yerning sifat darajasining pasayib ketishi), boshqa tomonidan esa, agrar ishlab chiqarish jarayonlarini xo‘jalik yuritishning bozor mexanizmlariga tezlik bilan moslasha olmayotganligi bilan izohlash mumkin.

Bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining samarali ishslashining muhim omillardan yana biri - bu qurilish majmuasining samarali faoliyat yuritishi hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatining qurilish majmuasi katta salohiyat hamda imkoniyatlarga ega bo‘lsa-da, mazkur majmua islohotlardan va bozor talabidan ortda qolib, bugungi kunda viloyat ehtiyojlarini qondira olmayapti. Bu holat birinchi navbatda qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatidagi vaziyat bilan baholanadi. Viloyat yetarli darajada mineral xomashyo resurslariga ega bo‘lsada, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati ehtiyojlarining salmoqli qismi chetdan olib keltiriladigan materiallar hisobiga qondirilmoqda.

Yuqoridagi yutuq va kamchiliklar viloyat tumanlarining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishiga turlicha ta’sir ko‘rsatmoqda.

²¹ A.Qobilov. «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy jurnali. №5, oktabr, 2020.

Jahon tajribasidan ma'lumki, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi tafovutlarni hamda kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'llaridan biri – tadbirkorlikni rivojlantirishdir. Viloyatda kichik biznesning ulushi yalpi hududiy mahsulotda 68,1 foizni, sanoatda 23,6 foizni, qurilishda 73,2 foizni, budget tushumida esa qariyb 57 foizni tashkil etdi. 2023- yilda faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan 10,5 birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022 yilga nisbatan 1,4 birlikka oshgan bo'lsada, hududlar kesimida katta tafovutga ega. Masalan, eng yuqori ko'rsatkich Qarshi shahrida (23,5), eng past ko'rsatkich Ko'kdala tumani (5,8) da qayd etilgan.

Kelajakda viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdagi asosiy yondoshuv, hududlarni ixtisoslashuvidan kelib chiqib, tadbirkorlikni rivojlantirish, ularga har tomonlama ko'mak berish orqali aholi bandligini ta'minlash va shu asosda kambag'allikni qisqartirish hamda yoshlar va ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Qashqadaryo viloyatinning tabiiy - iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lsada, mazkur salohiyatdan foydalanishda qator muammolar ham mavjud. Ular sirasiga sanoat ishlab chiqarishi sohasidagi holatni kiritish mumkin. Viloyatda yetakchi tarmoqlardan hisoblangan sanoat korxonalarida mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan va bo'sh ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanilmayapti.

Qashqadaryo viloyati hududlari orasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha keskin tabaqlashuvni kuzatish mumkin. Xususan, 2022 yil yakunlariga ko'ra, viloyatning 3 ta hududi (Qarshi shahri, G'uzor, Nishon tumanlari)ning viloyat bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlaridagi ulushi 53,8 foizni tashkil qilgan. Qashqadaryo viloyati sanoatida Nishon tumanining ulushi -23 foizni, G'uzor tumaniniki -15,4 foizni va Qarshi shahriniki -15,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, Ko'kdala tumani 0,5 foiz bilan eng past ko'rsatkichni egallagan. Shuningdek, Shahrisabz, Mirishkor va Muborak tumanlari ham past ko'rsatkichli ulushlarga ega bo'lgan. Bu borada yaqin yillargacha nafaqat viloyat, balki respublikaning sanoat yetakchisi bo'lgan Muborak tumani bilan bog'liq qarama qarshi statistikani keltirish mumkin. 2018-2019 yillarda bu tumanning viloyat sanoatidagi ulushi 31,6 foizni tashkil qilgan. Tahlillar ushbu tumanlarda sanoatni rivojlantirish bo'yicha keskin islohotlar etishni talab qiladi.

Shunday qilib, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini baholash orqali mintaqaning yutuqlari va muammolari aniqlanib, muammolarni bartaraf etishning mintaqaga xos oqilona yo'llari ishlab chiqilishi kelajakda viloyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlaydi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

"O'zbekiston 2030" strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentabrdagi PF-158-son Farmoniga 1-ilo va <https://lex.uz/ru/>

A.Qobilov. «Xalqaro moliya va hisob» ilmiy jurnali. №5, oktabr, 2020.

Erkaeva Gulbakhor, Zoirov Golib, FUNDAMENTALS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN , Best Journal of Innovation in Science, Research and Development: Vol. 2 No. 9 (2023): Best Journal of Innovation in Science, Research and Development

Erkaeva, G. P., & Shukurov, U. S. (2022). EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES IN INCREASING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF THE REGIONS. Gospodarka i Innowacje., 24, 234-238.

Gulbakhor, E. . (2023). Possibilities of increasing the standard of living of the population of the regions in socio-economic development. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 2(9), 412–416.

МИНТАҚАДА ИШБИЛАРМОНЛИК МУХИТИНИ ЯХШИЛАШ ОМИЛЛАРИ

Б.Эгамов, и.ф.н., доцент.

Маъмун Университети

Л.Қадирова, доцент.

Андижон Давлат Университети

Хоразм вилоятида иқтисодий жараёнларни янада жадаллаштириш борасида ишбилармонлик мухитини яхшилаш муҳим аҳамият касб этади. Айнан мана шу омил минтақада инвестицион иқлимининг ижобий томонга ўзгариши, тадбиркорликни ривожлантириш ва иқтисодга сармояларни жалб этишга шарт шароит яратиб беради.

Вилоятда ишбилармонлик мухитини яхшилаш энг аввало молиявий маблағлар ва хом ашё ресурслари билан таъминлаганлик даражаси, бошқарув тизимининг сифати, кадрлар салоҳияти, меҳнат бозорининг шаклланганлиги ва ундаги мувозанат каби бир қанча омиллар билан узвий боғланган. Шу ўринда минтақада бозор, транспорт, ижтиомий ва коммуникациявий инфратизилманинг риовжланганлиги ҳам муҳим аҳамития касб этади.

Вилоятда тадбиркорлик ва маҳаллий ташаббускорликка таъсир этувчи омилларнинг энг асосийлари сифатида қўйидагиларни куриб чиқиш ўринли булади:

1. Тадбиркорлик субъектларининг хом ашё ресурсларига бўлган эҳтиёжини қондириш масаласи Хоразм вилояти шароитида жудам ухим хисобланади. Чунки вилоят узининг хом ашё базасига етарлича эга эмас. Ушбу муаммо айниқса саноатни ривожлантиришда ўта долзарб хисобланади. Шу туфайли ҳам четдан келтирилаётган хом ашёни олишда бир қанча муаммолар туғилмоқда. Масалан, Қушкупир туманида фаолият курсатаётган селикат ғишт заводи хом ашё сифатида фойдалаётган оҳак тошни Қорақалпоғистон Республикасининг “Сутон Увайс” манбаидан қазиб олиб келишда бир қанча қийинчиликлар вужудга келмоқда. Мана шундай муаммоларни бартараф этишининг йўлларидан бири хом ашё манбаалари мавжуд худудардаги тадбиркорларни лойиҳага шерикликка чақириш. Шу аснода қушни вилоят тадбиркорлари билан хамкорликда амалга ошириладиган минтақалараро лойиҳаларни ишга тушириш мақсаддага мувофиқ булади. Бундай лойиҳаларда хом ашёни қазиб олиш ва етказиб бериш қушни минтақа тадбиркорлари зиммасига юклатилса, уни қайта ишлаш ва тайёр махсулотлар ишлаб чиқариш маҳаллий тадбиркорлар томонидан амалга оширилади. Мана шундай минтақалараро